

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Навоий Алишер. Лисон ут-тайр. МАТ: 20 томлик. 12 т. - Тошкент: “Фан”, 1997. – Б.11.
2. Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 1т. Бадоевл-бидоя. – Тошкент: “Фан”, 1987. – Б. 37-38
3. Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аббор. - Тошкент: “Фан”, 1991. – Б. 91.
4. Навоий. А. МАТ: 20 - жилдлик. 14 жилд. Маҳбуб ул-қулуб. - Тошкент: “Фан”, 1998. –Б. 65-71.
5. Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 2 т. Наводир ун-ниҳоя. - Тошкент: “Фан”, 1987. – Б. 15.
6. Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 17 т. Насойим ул-муҳаббат. - Тошкент: “Фан”, 2001. – Б. 250-251.

**XIROMIY – QASHQA VOHASI IJODKORI**

**ХИРОМИЙ - СОЗДАТЕЛЬ ДУБА КАШКИ**

**KHIROMI IS THE CREATOR OF THE QASHQA OASIS**

**S.S. Shodiyeva**

Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan, Qashqadaryo vohasi ijodkorlaridan biri bo‘lmish Xiromiy hayoti va u tomonidan yaratgan betakror asarlarning mumtoz adabiyotmizdagi o‘rni xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Qashqadaryo adabiy muhiti, siyosiy parokandalik, tazyiq, adabiy meros, qo‘lyozma, doston, vafo va sadoqat,adolatli hukmdor.

**Аннотации:** В статье рассматривается жизнь Хироми, одного из создателей Кашкадарьинского оазиса, жившего и творившего в XIX веке, и место его уникальных произведений в нашей классической литературе.

**Ключевые слова:** литературная среда Кашкадарья, политические беспорядки, репрессии, литературное наследие, рукопись, эпос, верность и верность, справедливый правитель.

**Annotation:** This article deals with the life of Hiromi, one of the creators of the Kashkadarya oasis, who lived and worked in the XIX century, and the place of his unique works in our classical literature.

**Keywords:** Kashkadarya literary environment, political turmoil, repression, literary heritage, manuscript, epic, fidelity and loyalty, just ruler.

Mustaqillik yillarda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo‘lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda ham milliy o‘zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining noma’lum sahifalarini, milliy adabiyotimiz tarixini qaytadan o‘rganish, asossiz ravishda unutilgan ijodkorlar hamda tafakkurimizning boy ilmiy-ijodiy merosini yoritish bilan bog‘liq izlanishlarga keng yo‘l ochildi.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek xalqining adabiy-tarixiy merosida mumtoz adabiy asarlar salmoqli o‘rin egallaydi. Ana shunday asarlarni, merosimizni haqqoniyligi o‘rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan yigirma mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bu nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davri keldi” [1. 132].

Shu ma’noda O‘zbekiston tarixi hamda o‘zbek adabiyoti tarixida Buxoro adabiy

muhitining bir tarmog'i hisoblangan Qashqadaryo adabiy hayotining XIX asr tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiy muhit yetishtirib bergen ijod ahli taraqqiyotimizning turli davrlarida adabiy harakatning faol ishtirokchilari bo'lishgan. Ularning asarlari xalqimizning o'limas ma'naviy mulkiga aylangan. Mumtoz adabiyotning turli janrlaridagi bitiklar ulkan meros sifatida bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularning ko'plari bugun qayta-qayta nashr etilib, kitobxonlarga yetkazilmoqda. Lekin mazkur davr adabiyotining o'rganish doirasi kengligidan muhitning bir qancha shoirlari haqida hozirgacha batafsil ma'lumotga ega emasmiz. O'zbek adabiyotida tadqiq etilishi lozim bo'lgan qimmatli manbalarga boy vohaning XIX asrning birinchi yarmini qamrab olgan Qashqadaryo adabiy muhiti yetarlichcha o'rganilgan emas.

XIX asrda Qashqadaryo vohasining ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan bir qatorda madaniy hayoti ham murakkab davrda davom etdi. O'zaro nizolar xalqimiz hayotini izdan chiqarib yuborishi bilan bir qatorda ilm-fan ahlining, shoirlarning taqdirida ham salbiy iz qoldirdi. Jumladan, Mushtoq Shahrishabziy, Mulla Qurbon Xiromiy, Junaydullo Hoziq kabi ko'pgina ijodkorlar qismati bunga misol bo'ladi. Ijod ahli davr voqeа-hodisalaridan chetda emasdi. Zamon notinchiklari ularning hayotiga ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, yozgan asarlari mazmun-mohiyatida ham aks etmasdan qolmagan. Shu nuqtayi nazardan vohaning XIX asr birinchi yarmida ijod etagan Mulla Qurbon Xiromiy adabiy merosi davrning badiiy solnomasi o'laroq katta ahamiyatga ega.

Mumtoz adabiyotimizning mashhur siymolaridan biri bo'lgan **Mulla Qurbon Xiromiy** 1796(1810)-yili Kitob shahrining Charmgaron mahallasida tug'ilgan. Shoirming haqiqiy ismi – Mulla Qurbon, uning adabiy taxallusi esa Xiromiyidir. Bu taxallus otasining kasbiga nisbatan tanlangan bo'lsada, (*Xiromiyning avlodlari xirom, meshi, qayroqi, bulg'or, qorapoycha kabi charm turlari ishlash bilan shug'ullanganlar*) biroq xirom so'zinining (chiroyli yurish-xirom qilmoq) boshqacha ma'nosi ham nazarda

tutilgan. Boshlang'ich ma'lumotni Qorapoycha guzaridagi masjidda olgan. Xiromiy o'n besh yoshidan keyin Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsilni davom ettirgan. Ammo iqtisodiy qiyinchilik tufayli uni nihoyasiga yetkaza olmay, yigirma besh yoshida Kitobga qaytib kelgan. Ota kasbi - charmgarlik, tabiblik, xattotlik qilib kun kechirgan.

Xiromiy hayoti haqidagi ilk manba Ostonaqul Dabiriyning "Chor darvesh" asari bo'lib, uning toshbosma nashri muqaddimasi va xotimasida Xiromiy haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Jumladan, asar muqaddimasidagi ta'rif quyidagicha:

Xiromiyki mashhuri ofoq edi,  
Yetib vaqt, uqbog'a qildi xirom.  
Qolib ushbu avroq andin nishon,  
Ki ahyon nomig'a qoyim maqom...  
Erur lajhasi xo'bu mazmuni ham,  
Aningchun bo'lib olama neknom.  
Ajab nusxai ibratoin base,  
Hikoyoti ashxosi olmaqom.  
Bu uslub ila masnaviy kam erur,  
Ki alfozi turkiyda husni kalom [4. 318].

Xiromiy ijodini o'rganish XX asrning 40-yillardan boshlandi. Dastlabki ma'lumot Olim Sharafiddinov tomonidan 1945-yilda tuzilgan "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi"da keltirilgan. "Chor darvesh", "Ra'no va Zebo" dostonlari alohida nashr etildi [7]. Akademik Vohid Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" (1964) kitobida ham Xiromiy hayoti va ijodiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Oltmishinchi yillarga kelib uning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni barchaga ma'lum bo'ldi. Xiromiy yashagan davrda Buxoro amiri Nasrulloxonning zulmkorona siyosati, iqtisodiy ahvolning nochorligi tufayli Shahrishabz, Kitob, Yakkabog'bekliklari aholisi o'rtasida norozilik kayfiyatları kuchaygan, xonlikka bo'yusunmaslik harakatlari boshlangan edi. Bunga javoban Amir Nasrulloning bosqini, erkatalab kenagaslarni qatag'on qilishi Mulla Qurbonda ham isyonkorlik tuyg'usini uyg'otgan. Ayniqsa, amir xufiyalari tomonidan qatl etilgan shoir Hoziqning dafn marosimidagi ishtiroki, erksevar, ilg'or fikrli kishilar bilan do'stligi uning qattiq ta'qib

ostiga olinishiga sabab bo'lgan. O'zinigina emas, uning barcha yaqinlari ham ta'qib ostiga olingan. Shu sababli shoir Kitob shahridan yashirinchcha chiqib ketishga majbur bo'lgan. Uning Navoiy g'azaliga bog'lagan bir muxammasidagi baytlar o'sha davr haqida so'zlaydi:

Ohkim, ko'nglim uyi vayronadur me'morsiz,  
Sog'ari ayshim nigundir bir mahi gulnorsiz,  
Naxli umrim g'am elidin qoldi biru borsiz,  
Navbahor ayyomi o'l mish, man diyoru  
yorsiz,  
Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gulu gulzorsiz.

Xiromiy mumtoz adabiyotimizning Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Bedil, Zebuniso singari ulug' san'atkorlari ijodidan bahramand bo'lib, ularning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Jumladan, turli qo'lyozmalar (bayoz va shoirlar devoni)da Xiromiyning beshta muxammasi uchraydi. Hajmi 175 misradan iborat bo'lgan bu muxammaslarning uchtasi o'zbekcha bo'lib, Navoiy g'azallariga, tojik tilidagi ikkitasi esa Sa'diy va Zebunniso g'azallariga bog'langan [4. 322]. Zamondoshlari bo'l mish Shavqiy Kattaqo'rg'oni, Hoziq, Volalar bilan yaqin ijodiy aloqalar o'rnatdi.

Xiromiy adabiy merosi o'ttiz ming misraga yaqin. Xiromiy "Chor darvesh" (1834), "To'tinoma" (1854), "Ra'no va Zebo" (1856), "Yusuf va Zulayho" (1862) singari dostonlardan tashqari ikki yuzdan ortiq muxammasni o'z ichiga olgan devon tuzganligi ham ma'lum. Bu asarlar o'z vaqtida juda mashhur bo'lgan. Xususan, "Chor darvesh" 1910-yilda Toshkentda, 1913-yilda Kogonda litografik usulda bosilgan. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Chor darvesh" 359, 9251, 1675, 7713, 4819, 7847, 217; "To'tinoma" 1795; "Ra'no va Zebo" 1528, 217; "Yusuf va Zulayho" esa 1799 raqamlari ostida saqlanadi. Sankt-Peterburg davlat kutubxonasida, ba'zi xususiy kutubxonalarda, jumladan, Dushanbedagi Firdavsiy kutubxonasida ham "Ra'no va Zebo"ning, Zarafshon va Farg'ona vodiysisidagi muxislari qo'lida "To'tinoma"ning qo'lyozma nusxalari mavjud. Bundan tashqari, SamDUning

asosiy kutubxonasida Xiromiyning ba'zi qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda [4. 334-339].

Xiromiy asarlarini nihoyatda qiyin davrda, ya'ni urush va janjallar davom etayotgan og'ir vaziyatda yozgan. Bu holni yuqoridagi asarlarni tahlil qilish jarayonida uning umumiylu ruhiyatidan ham bilsa bo'ladi. Bularning orasida keng tarqalgani "Chor darvesh"dir. Xiromiy bu dostonini fors tilidagi nasriy "Chor darvesh" asosida yozgan. Bu asar fors tilidagi nasriy "Chor darvesh"ning she'riy usulda yozilgan erkin tarjima varianti bo'lmasdan, balki alohida kompozitsiyaga ega bo'lgan yaxlit bir asardir. Shoir mavjud manbadagi ayrim holatlarni qisqartirib asosiy maqsad ifodasiga xizmat qiluvchi xarakterli yangiliklar kiritgan, obrazlar sistemasiga ham ma'lum o'zgarishlar kiritgan, voqeа hodisalar talqini, qahramonlar tabiatiga yangicha ruh bag'ishlab, umuman, asar xalqchilligini oshirishga harakat qilgan. Asar qoliplash usulida yozilgan, qoliplovchi hikoya Ozodbaxt hikoyasidir. "Chor darvesh"ning qoliplovchi hikoyasida farzandalab Ozodbaxt ziyoratga chiqib, mozor ustida g'amzada to'rt kishini ko'rib qoladi. Bular umrlarida juda qiyalgan to'rt darvesh edi. Har kecha bir darvesh o'z ayanchli sarguzashtini hikoya qiladi. Ozodbaxt o'z farzandsizligidan so'z boshlab, darveshlar sarguzashtini tinglaydi.

Birinchi darvesh sarguzashti markazida ahd va vafo g'oyasi turadi. Hikoya Malika, Kal va Yaman shahri savdogari o'rtasida bo'lib o'tgan voqealar asosida qurilgan. Shunga bog'liq holda shaxsiyatparastlik, mol-u mulk uchun kurash va o'ch olish kabi masalalar ham tasvirlanadi. Yuqoridagi fikrlarni ifodalash jarayonida feodal jamiyatga xos razil xususiyat va sifatlar fosh etiladi.

Ikkinci darvesh hikoyasida esa taxt-mansab uchun o'z farzandining baxtsiz va jiyanining halok bo'lishiga sabab bo'lgan shaxsni qoralash va tuzni oqlash uchun jonini fido qilgan insonni ulug'lash g'oyasi yotadi.

Uchinchi darvesh sarguzashtida himmat va saxovat g'oyasi asos qilib olingan. Bu g'oya fors, Nimro'z shahzodalarining sarguzashtlari va Malikai

ol Barmak voqeasi asosida yechilgan. Malikai ol Barmak hikoyasida o'zining ideal hokim, mamlakat, tuzum haqidagi fikrlarini olg'a suradi.

To'rtinch darvesh hikoyasida Chin mulkining shahzodasi Muborak yordamida o'z maqsadiga erishishi bayon etilgan.

Doston Ozodbaxtning Baxtiyor ismli farzand ko'rib, parilarning ulug' shoiri Malik Shohboz yordamida murod-maqsadlariga yetishi bilan tugaydi. Shoir Ozodbaxt siyemosida adolatli, xalqparvar, oliyhimmat, ideal hukmron obrazini yaratgan.

Yuqoridagi mulohazalardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, mazkur doston zamirida xalq manfaatini, uning orzu-ideallarini ifoda etuvchi ilg'or g'oyalar muhim o'r'in tutgan. Bu asarning yaratilishi o'z davri uchun ma'lum bir tarbiyaviy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Xiromiyning hajman eng yirik asari "To'tinoma" hisoblanib, u o'n ikki ming misradan iboratdir. Jahon adabiyotida Xiromiygacha "To'tinoma"ga Naxshabiy, Qodiriy, Haydariy, Latifiy singari ijodkorlar qo'l urgan [8. 104-123]. Xiromiy o'z "To'tinoma"sin 1854-yilda yaratilgan Naxshabiy varianti asosida yaratgan.

Naxshabiykim anga yetib erdi,  
Forsiy tilda nashr etib erdi.  
Men ham aning so'ziga azm etdim,  
To'ti alfozi birla nazm etdim.

Xiromiy "To'tinoma"sin o'zbek tilida she'riy yo'l bilan qayta yaratdi. Uning maqasadi bu yodgorlikdagi ma'noli hikoyalar vositasida yurak dardlarini xalqqa bayon etish edi. U ham boshqa ijodkorlar kabi "To'tinoma"ning mavjud sujetiga asoslangan bo'lsa-da, sujet yo'nalishini murakkabroq qilib, unga yangicha ma'nolar bergen. Xiromiy qahramonlar psixologiyasini milliylashtiradi.

Asarning bosh g'oyasi – vafo va sadoqat. To'tining barcha hikoya va qissalari shu g'oyani asoslash, isbotlashga qaratilgan.

"To'tinoma"ning markazida o'z yoriga vafosizlik qilish arafasida turgan Xujasta, xo'jasiga sadoqat ko'rsatgan, dono To'ti, boylik yo'lida oila, sevgini hisobga

olamaydigan, shuhratparast Maymunning sarguzashti turadi. Maymun xarakteridagi bu holat qoloq jamiyat kishilariga xos tipik hodisadir. Maymun – dostondagi puxta ishlangan murakkab xarakterli obrazlardan biri. To'ti Maymun bilan Xujasta o'tasida vositachi rolini o'ynovchi obrazdir. Ya'ni Maymun To'tini sotib olib, sayohatga ketayotganda Xujastaning oldiga qorovul qilib ketadi. Maymun uzoq muddat uyiga qaytavermaganidan shubhalangan Xujastaga tasalli berish uchun turli xil pandnomaviy hikoyalarni aytadi. To'ti butun bir katta asarning sujetini boshidan oxirigacha boshqarib, saxovat, karam, vafo, muhabbat, gumanizm, muruvvat kabi turlituman g'oyalarni olg'a suradigan qiziqarli hikoyalar bilan dostonni bezaydi.

Shu nuqtayi nazardan u "To'tinoma"dagi eng faol obraz hisoblanadi. Zero asarning nomi ham bejizga "To'tinoma" deb atalmagan.

Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda Xiromiyning "Maxfiloro" asari ham borligi qayd etib o'tilgan. Jumladan, Olim Sharofiddinov tomonidan 1945-yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi"da "Xiromiy fors hikoyasi "Maxfiloro"ni nasr bilan tarjima qilgan", – degan fikrni aytib o'tadi [5. 272]. Ammo Xiromiy hayoti va ijodini o'rganish davomida shu narsa ayon bo'ldiki, "Maxfiloro" to'rt yuzga yaqin hikoya va qissani o'z ichiga olgan nasriy asar hisoblanib, Xiromiy uni emas, asar tarkibidagi "Ra'no va Zebo" qissasinigina yaratgan.

XIX asrda "Ra'no va Zebo" sujeti asosida beshta asar yaratilgan bo'lib, ularning orasidan Xiromiyning asari qator fazilatlari bilan ajralib turadi [4. 339]. Xiromiy dostoni o'zbek tilidagi birinchi she'riy "Ra'no va Zebo" dostoni bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

"Ra'no va Zebo" dostoni ham qoliplash usulida bo'lib, qoliplovchi hikoya Ra'no va Zebo sarguzashtlaridir. Qoliplanuvchi hikoyalar jami o'n bitta bo'lib, uning beshtasini Zebo, beshtasini Malloh, qolgan bittasini Xoja Safdar aytadi. Pok muhabbatni ulug'lash dostonning asosini tashkil etadi. Unda Ra'no, Zebo, Ra'noning otasi Malik Rayhon obrazlari orqali inson huquqi,

ijtimoiy tenglik, adolat, olижаноблик каби г‘оялар юритилади. Shuningdek, mazkur dostonda chin muhabbat, insoniylik, vataparvarlik, ilm-ma‘rifatga intilish каби fazilatlar ham tarannum etilgan. Ayni paytda, Xiromiy mazkur dostonida o‘z yurti vasfini, davr voqealarini ham aks ettirgan. Jumladan, “Ra’no va Zebo” ning boshlanishida shoir Shahrisabz bayonida shunday satrlarni bitgan:

G‘arazkim, Shahrisabzi jannatoyin,  
Ki topdi tangri lutfi birla tazyin.  
Iki jonib iki daryoyi mavvoj,  
Falak yuzig‘a mavjидин urib koj.  
Hisori yetti ko‘kdin bosh oshurg‘он,  
Falak burjig‘a burji ta’n urg‘он.  
Butib shahr ichra har jonib xiyobon,  
Yeri payvast sumbul birla rayhon.  
Na yuzdin bo‘lmasin fasli bahori,  
O‘tar har ko‘chasidin jo‘ybori.  
Sarosar yer yuzidur sabzai tar,  
Degaysankim, inibdur charxi ahzar.  
Arig‘lar har tarafdin jadvali sim,  
Yonida sabza-mo‘yak anga taslim.

Ulusi sayr etar andoqli mahvash,  
Bu yuzdin derlar oni Keshi dilkash.

Xiromiy yuqoridagi dostonlarida umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan xalqlar do‘stligi, insonlar hamjihatligi, adolatli podshoh va farovon jamiyat g‘ояларини ilgari surgan. Inson tarbiyasi, kamoli uchun salbiy rol o‘ynaydigan, zolim hukmdorlarga xos xususiyatlarni qoralaydi.

Xiromiy 1891-yili vafot etgan. Bugungi kunda shoirning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkent va Kitob shaharlaridagi ko‘chalarga, Shahrisabz tumanidagi maktabga uning nomi berilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrda Qashqadaryo yaratilgan adabiyot, asosan, zo‘rovonlikka qarshi norozilikni va qoloqlikni tugatishga qaratilgan taraqqiyparvar xalq adabiyoti sifatida rivojlandi.

Ayniqsa, Xiromiy dostonlaridagi majoziy ifodalangan fikrlarda Qashqadaryo vohasida hukm surgan adolatsizlik, tengsizlik ochib tashlanadi.

#### **Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:**

- Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Т.: Ўзбекистон, 1999. 210-б.
- Адашев М. “Раъно ва Зебо” мавзусидаги достонлар (генезис ва тараққиёт): Филол. фан. номз ... дис. автореф. – Душанбе: 1990. 26-б.
- Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (XVI –XIX аср I ярми). – Т.: Фан, 2006. 240-б.
- Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. III том. – Тошкент: Фан, 1978. 380-б.
- Ўзбек адабиёти хрестоматияси (XV–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1945. 524-б.
- Қораев Т. Мавлоно Хиромий. – Т.: Шарқ, 1975. 150-б.
- Хиромий. Чор дарвеш. (Нашрга тайёрловчи: А. Азизов). – Т.:Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. 400-б.
- Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. 191-б.